

ISSN: 2545-0573

## MINTAQALARNING TURISTIK IMKONIYATLARINI OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH XUSUSIYATLARI

**Erkayeva Gulbaxor Panjiyevna**

*QarshiDU Iqtisodiyot kafedrası dotsenti*

**Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li**

*QarshiDU magistranti*

### ARTICLE INFO.

#### **Kalit so'zlar:**

Hudud, mintaqaviy turizm, raqamli texnologiya, innovatsiyalar, Global innovatsion indeksi, turistik infratuzilma, turistik jozibadorlik.

### Annotatsiya

Maqolada mintaqalarning turistik imkoniyatlarini oshirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish zarurligi ochib berilgan, sohada innovatsion texnologiyalarni qo'llanilishini Qashqadaryo viloyati misolida yoritilgan hamda tarmoqni rivojlantirish bo'yicha takliflar keltirib o'tilgan.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2022 LWAB.

**Kirish** Zamonaviy g'arb iqtisodiyotida turizm murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida qaralib, turistik industriya jamiyat, turistik siyosat va iqtisodiyot bir butunlikni tashkil etadi degan qarash mavjud. Bunday yondashuv turizm sohasining rivojlanishi nafaqat iqtisodiyotning ma'lum tarmoqlari uchun, balki butun mamlakat iqtisodiyotiga ijobiy ta'sir o'tkaza olishi bilan multiplikativ samaradorlikni namoyon qiladi.

Turizmni iqtisodiy jihatdan tahlil etishda, uni makro darajada (butun mamlakat) emas, balki mikro darajada (alohida hudud, mintaq) o'rganish uning imkoniyatlarini to'laroq o'rganish hamda kuchaytirish yo'llarini ichlab chiqishga yordam beradi. Ayniqsa bugungi kunda, raqamli texnologiyalar yordamida istalgan sohani o'rganish, tahlil qilish va bir necha yillik prognozlarni keltirish, uning imkoniyatlarini bir necha barobarga oshirish yo'llarini ta'minlab bera olishi, turistik faoliyatni xalqaro standartlar darajasiga yetkazishda ijobiy ta'sir o'tkaza olishi hamda turistik infratuzilmani yaxshilash kabi masalalarni hal etish mintaqalarning turizm sohasida rivojlanishini raqamli texnologiyalar yordamida kuchaytirishni muhim ekanligini belgilaydi.

Hududlarda turizmni rivojlantirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5611 sonli farmoni bilan "Turizm konsepsiyasi" qabul qilingan bo'lib unga ko'ra, turizm sohasida davlat siyosati istiqbolda hududlar va ularning infratuzilmasini kompleks jadal rivojlantirishda turizm sohasi yetakchilik qilishi, dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yechish, ish o'rinarini ko'paytirish, hududlar diversifikatsiyasi va rivojlanishini ta'minlash, aholining daromadlari, yashash darajasi va sifatini oshirish hamda mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligi va imidjini yaxshilashga qaratilgan amaliy vazifalar belgilab qo'yilgan[1].

Shunday ekan yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda sohada raqamli texnologiyalarni joriy qilish, ularni qo'llab quvvatlash va barqarorligini ta'minlashga doir ilmiy-nazariy xulosalar berish ilmiy ishning muhimligini belgilab beradi.

**Tadqiqotning metodologiyasi va natijalari.** Tadqiqotda mintaqaviy turizm va uni rivojlantirishda raqamli texnologiyalardan foydalanishga oid ilmiy nazariyalar o'rganilib, solishtirma tahlil amalga oshirilgan, O'zbekistonda Global innovatsiyalar indeksi ko'rsatkichining o'sish tendensiyasi tahlil qilingan. Raqamli texnologiyalardan foydalanish orqali Qashqadaryo viloyati hududi misolida turizmning imkoniyatlarini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tahlil.** Ilmiy nazariya va uslubiyot nuqtai nazaridan turizmni mintaqa ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri deyarli o'rganilmagan. Turizmni mamlakat va mintaqa iqtisodiyotidagi o'rni turlicha ko'rinishga ega bo'lib, ayrim sohalarga qo'shadigan hissasi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Lekin ushbu holatni amalga oshirish avvalom bor iste'mol talablarini to'la qondirish, ya'ni o'ziga xos qadr qiymatlar tizimini, turistik kompaniyalarning egalari, ularning mahsulotlarini iste'mol qiluvchi turistlar, mintaqada ularni qabul qiluvchi xodimlar shakllantirishi lozim.

Mintaqalar iqtisodiy tuzilishida turizmning roli har xilligi bilan xarakterlanadi. Turizmning hududiy iqtisodiyot tarmoqlari tarkibida tutgan o'rniga uni ijtimoiy infratuzilmaning ko'p tarmoqli, tarmoqlararo majmuasi ekanligi nuqtai nazaridan baholanishi kerak. Ushbu ta'rif mintaqaviy iqtisodiyotda turizm maqsadining ikki tomonlamaligini ta'kidlaydi:


bir tomondan, turizm yangi moddiy qiymat yaratadi va uni xizmat ko'rsatish shaklida amalga oshiradi;

ikkinchi tomondan, turistlarga xizmat ko'rsatish bo'yicha nomoddiy xizmatlarni amalga oshiradi va amalga oshiradi. shuning uchun u ishlab chiqarish va noishlab chiqarish funksiyalarini bajaradi. Shuning uchun ham, turizmda sodir bo'layotgan iqtisodiy jarayonga ham ishlab chiqarish, ham xizmat ko'rsatish nuqtai nazaridan qarash kerak bo'ladi. Bu yondashuvlarda turizm sohasini mintaqaning imkoniyatlarini oshirish jihatidan yondashilgan[4].

Mintaqalarning turistik imkoniyatlarni tahlil qilishda ularda raqamli texnologiyalardan foydalanish bo'yicha turli yondashuvlar mavjud Xususan, portugaliyalik olimlar J. Saura, A. Menendez, P. Palos-Sanchos raqamli texnologiyalarning zamonaviylashuvi raqamli marketingni rivojlanishiga hamda Internet orqali sotuv, bronlashtirish, mahsulotlarni sotuvini qulay qilishga imkoniyat yaratib berganligini ta'kidlaydi. Ular bugungi kunda Internetga bog'langan elektron qurilmalardan sayohat uchun qo'llanmalar, GPS yoki interaktiv kitoblar kabi turli xil ilovalardan foydalangan holda odamlarning dunyo bo'ylab sayohatlarini tashkil qilish va amalga oshirishda yordam berish uchun doimiy ravishda foydalanishmoqda deb hisoblashadi[2].

Mahalliy iqtisodchi olimlarimizdan A. Norchayev xizmat ko'rsatishda raqamli iqtisodiyot – yangi ishlab chiqiladigan yoki joriy qilinishi lozim bo'ladigan jarayon emas, bu turizmدا innovatsion texnologiyalarni turistlarning kundalik hayotiga joriy etish orqali mavjud xizmatlarni yangicha ko'rinishga o'tkazish deb ta'kidlagan[3].

Raqamli texnologiyalardan foydalanishni oshirishda sohada innovatsiyalarni qo'llash hamda ularni rivojlantirish orqali mintaqalarning turistik jozibadorligini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Jahon amaliyotida Innovatsiyalarni rivojlanganlik darajasini ko'rsatadigan ko'rsatkich (Innovatsiyalar indeksi) mavjud bo'lib, u orqali mamlakatda milliy iqtisodiyotning innovatsion faoliyatga rivojlanishiga imkon beruvchi elementlarini qamrab oladi. Bular jumlasiga: institutlar, inson kapitali va tadqiqotlar, infratuzilma, bozorning murakkabligi, bilim va texnologiya natijalari, ijodiy natijalar hamda biznesning murakkabligi kabilardir. O'zbekistonda Global Innovatsion indeksini tahlil etadigan bo'lsak, 0-100 oraliqdagi natijalardan quyidagicha holat aks etadi(1-chizma):



**1-chizma. O'zbekistonda Global Innovatsion indeksning o'sish tendensiyalari<sup>1</sup>**

O'zbekiston bo'yicha o'rganilayotgan davrda o'rtacha ko'rsatkich 25,13 ballni, eng kam ko'rsatkich 2013 yilda minimal 20,9 ball va eng yuqori ko'rsatkich esa 2021-yilda 27,4 ballni qayd etgan. Taqqoslash uchun, 2021-yilda 132 ta davlat bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichi 34,30 ballni tashkil etgan. Demak O'zbekiston sharoitida innovatsiyalarni rivojlantirish borasida qilinishi kerak bo'lgan vazifalar ko'p ekanligini ko'rsatib beradi. Bu holat turizm sohasi uchun ham o'rinli sanaladi. Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning ko'plab tarmoq (transport, kommunal, joylashtirish, sug'urta, bank-moliya, xavfsizlik, ta'lim, ekologiya va h.k.) larini qamrab olganligi ularda amalga oshiriladigan o'zgarishlarning iqtisodiy samaradorligi turizm sohasiga tegishli hisoblanadi.

Inovatsion jarayonlar va raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish mintaqalarda mavjud muammolarga yechim topishda va kamchiliklarni kamaytirishga ijobiy xizmat qiladi. Turizm sohasida bunday texnologiyalardan foydalanish o'zining qulayliklari mavjudligini ko'rsatadi. Bular qatoriga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- turistga sarf-xarajatlarini optimalashtirish imkoniyati paydo bo'ladi, ya'ni xizmatlarni iste'mol qilishdan oldin buyurtma berishi mumkin (masalan, oldindan mehmonxonani bronlash, avia hamda temir yo'l uchun biletlar va h.k.);
- turistik xizmatlar (turpaketlar va turmarshrutlar) haqida ko'proq, tezroq hamda sifatli ma'lumot olish imkoniyati paydo bo'ladi (internet saytlari, ma'lumot beruvchi maxsus botlar va h.k.);
- raqamli dunyodagi turistik xizmatlar (online turistik xizmatlar, virtual turlar, online muzeylar va h.k)ning jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari katta bo'ladi;
- turistlar fikri (feedback) ni tez olish hisobiga turmarshrutlar va xizmatlarning kamchiliklarini bartaraf etishda hamda ularni yanada rivojlantirish imkonini beradigan kerakli ma'lumotlarni osonlik bilan yig'ish, saralash hamda kerakli tahlil va xulosalarni aniqlash imkoniyatini yaratiladi;
- xizmat ko'rsatish yoki yuqori sifatli servisni tashkil etish tezroq, sifatliroq, qulayroq hamda kam xarajat talab etadigan darajada bo'lish imkoniyatini ta'minlashda ham raqamli texnologiyalar va sohada innovatsiyalarni joriy qilish ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Qashqadaryo viloyati misolida raqamli texnologiyalarni rivojlantirish yo'nalishlarini tahlil etadigan bo'lsak, viloyatda 1043 ta arxeologik, 208 ta me'moriy, 27 ta diqqatga sazovor joy, 43 ta monumental jami 1321 ta moddiy-madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ular haqidagi ma'lumotlarni to'plash, elektronlashtirish, kerakli platformalarga joylashtirish hamda doimiy ravishda ma'lumotlarni yangilab

<sup>1</sup> <https://www.theglobaleconomy.com> sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

borish kerak bo'ladi. Viloyat hududida faoliyat yuritayotgan 50 ta joylashtirish vositalari (2646 o'rin)ning barchasini "E-Mehmon" avtomatlashtirilgan axborot tizimiga ulanishini ta'minlash, bu orqali esa turistik oqimlar, qaysi hududlarda talab yuqori va qaysi birida kam ekanligi haqidagi ko'plab savollar javob topish mumkin bo'ladi. Hududda mavjud bo'lgan 100 dan ortiq milliy va Yevropa taomlari tayyorlaydigan restoran hamda milliy uslubdagi choyxonalar faoliyatini reklama qilib borish, bunda turli xalqaro nashrlarni jalb qilish, internet saytlariga ovqatlantirish shaxobchalari faoliyatini namoyish qiladigan materiallarni joylab borishni ta'minlash kerak bo'ladi[5]. Hozirgi kunda vohada 15 ta turoperatorlik subyektlari faoliyat ko'rsatmoqda. Ularning faoliyatini bir biri bilan bog'lovchi elektron baza faoliyatini yo'lga qo'yish, bu orqali ularning faoliyati uyg'unligini ta'minlash, yangi turistik marshrutlar ishlab chiqishda hamkorlik asosida amalga oshirish kabi masalalarda ijobiy yechim berishi bilan ham xarakterlanadi.

**Xulosa.** Umuman olganda, hozirgi kunda raqamli texnologiya har qanday sohaning rivojlanishi va uning imkoniyatlarini to'laroq namoyish etishda qo'llanilmoqda. Shunday ekan, iqtisodiyotning har qaysi tarmog'ida uni joriy etish muhim vazifa sifatida hisoblash zarur. Ayniqsa, mintaqalarning turistik jozibadorligini oshirishda, ko'p sonli ham mahalliy ham xorijiy turistlarni jalb etishda shu bilan birga, xizmat sifatini yuqori darajada tashkillashtirishda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim omil ekanligini davrning o'zi ko'rsatmoqda.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli farmoni
2. J.R. Saura Using data sciences in digital marketing: Framework, methods, and performance metrics *Journal of Innovation and Knowledge*, 1 (2020), 10.1016/j.jik.2020.08.001
3. A. Norchayev. Turizmda raqamli innovatsion texnologiyalarni joriy qilish yo'nalishlari. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" Ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel, 2020 yil
4. Nabiev, D. K., & Panjievna, E. G. (2021). Actual issues on autonomy management in higher education. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 1(1.1 Economical sciences)
5. G. Erkayeva, R. Vayskulov. Mintaqaviy turizmni rivojlantirishda geoaxborot texnologiyalarning ahamiyati. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali 1/2022, yanvar fevral (№ 00057) 344-352 b.
6. <https://www.qashstat.uz/uz/> - Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi rasmiy sayti
7. [https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/GII\\_Index/](https://www.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/GII_Index/)